O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL’A TUMAN KENGASHI QARORI

220400, Tuproqqal’a tumani, Pitnak shahri, Mustaqillik ko’chasi, 1-uy, tel: 30-54-678, faks: 30-53-315

2022 - yil 13 - aprel VI-55-56-12-218-K/22 Tuproqqal'a tumani hokimligi

Tuproqqal’a tumanidagi “Yo'ldosh Oxunboboyev” mahallasida joylashgan Serquyosh ko‘chasining nomini yangi nom Ne’mat Polvonov nomi bilan qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyeklarning nomlash to‘g‘risidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert kommisiyasining 2021-yil 15-martdagi 00768-sonli va tuman hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash yoki qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi”ning 2021 yil 3 martdagi 4-994-sonli yig‘ilish bayonini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Resoublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert kommisiyasining 2021-yil 15-martdagi 00768-sonli va tuman hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi”ning 2021-yil 3-martdagi 4-994-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

2. Tumandagi “Yo'ldosh Oxunboboyev” mahallasida joylashgan Serquyosh ko‘chasining nomini Ne’mat Polvonov deb yangidan nomlanishi tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (M.Satimov), Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali (O.Qurbonov) “Yo'ldosh Oxunboboyev” mahallasida joylashgan ko‘chaning Ne’mat Polvonov deb yangidan nomlanishi munosabati bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman qurilish bo‘limi (J.Abbazov) mazkur ko‘chaga yangi nom yozilgan ko‘rsatgich belgilar, peshlavhalarini zamonaviy dizayin asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlansin.

5. Ushbu qaror rasmiy nashrlarda e'lon qilinsin..

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy rivojlanish, xotin-qizlar va yoshlar masalalari hamda nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikda ishlash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Z.Matkarimov, Xalq deputatlari tuman Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.Ibragimov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Salayev**